
RISHTONDA BARPO ETILAYOTGAN 1100 O'RINLI TEKSTIL KORXONASI YONIDA ZAMONAVIY "YANGI O'ZBEKISTON" MASSIVI QAD ROSTLAYDI

Kecha Rishton tumanida bo'lgan viloyat hokimi Xayrullo Bozorov, M.Topvoldiyev mahalla fuqarolar yig'ini hududida "Rus O'zbekteks" MChJ xorijiy korxonasi qoshida tashkil etilayotgan tuqimachilik fabrikasining qurilish jarayonlari bilan ham tanishdi. Joriy yilning iyun oyida viloyat hokimi ishtirokida mazkur korxonaning tamal toshi qo'yilgandi.

1100 ishchi o'ringa mo'ljallangan ushbu fabrikada momiq sochiq, choyshab, ip kalava ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Loyiha qimmati 37,5 mln AQSh dollarga teng bo'lgan korxona qurilishi 2021-2022 yillarga mo'ljallangan. Fabrika Xitoy texnologiyalari bilan jihozlanadi.

Mazkur hududda ko'p qavatli uylardan iborat zamonaviy "Yangi O'zbekiston" massivi barpo etishga ham kirishilmoqda.



Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating

[Facebook](#),

2021-11-16 09:48:08